



BAXMAL TUMANINING IQTISODIY - IJTIMOIIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20172268>

Adilova Ozoda Amonovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Xamdanova Navbahor Nurulla qizi.

Jizzax davlat pedagogika unversiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Baxmal tumani qishloqlarining iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari kompleks tahlil qilinadi. Hududning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi tarmoqlari, aholi bandligi, infratuzilma holati hamda ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar ilmiy asosda yoritiladi. SHuningdek, qishloq hududlarining rivojlanish istiqbollari va mavjud muammolari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar beriladi.*

Kalit so'zlar; *Baxmal tumani, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, bog'dorchilik, infratuzilma bandlike, ijtimoiy rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, tog'li hudud, demografik jarayonlar.*

KIRISH

Hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tog'li va tog' oldi hududlarida joylashgan qishloqlarning barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Baxmal tumani Jizzax viloyatining tabiiy resurslarga boy, agroiklimiy sharoiti nisbatan qulay hududlardan biri hisoblanadi. Tumanning asosiy aholisi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush darajasi bevosita joy iqlim sharoiti va iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq hisoblanadi.

Baxmal tumani Turkiston tizma tog'lari etaklarida joylashgan bo'lib, relyefi asosan tog' va tog'oldi qir adir va tekisliklardan tashkil topgan. Janubiy

qismi Turkiston tizmasi va Molguzor tog'lari (eng baland joyi 2621m) bilan o'ralgan, Sangzor vodiysi hududidan o'tadi. Iqlimi mo'tadil kontinental bo'lib, yoz fasli salqinroq, qish esa nisbatan sovuq bo'ladi. Tog'li hududlariga qor yog'inlarning ko'p tushishi natijasida daryo va soy suvlari bahor faslida to'lib toshib oqadi. Yog'ingarchilik miqdori tumanning barcha hududlariga qo'shni tumanlarga nisbatan ko'proq tushadi, bu esa dehqonchilik va yaylovlarda yomg'irning ko'p yog'ishi natijasida tog'lardan sel kelish xavfi ko'p bo'ladi, bu esa chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholiga juda katta zarar keltiradi.

Baxmal tumani qishloqlarida iqtisodiyotning asosiy tarmog'laridan



qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Aholining katta qismi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. G'allachilik, kartoshkachilik, sabzovatchilik bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan. Tog'li hududlarda yaylovlar ko'pligi sababli chorvachilik yaxshi rivojlangan. Ayniqsa qo'y va qoramol boqish uchun qulay sharoit mavjud. Chorvachilik nafaqat aholining daromad manbai, balki tumanning ichki bozorini go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Tuman tog' va tog' yonbag'irlarida joylashganligi uchun so'lim go'shalari ko'p, shu sababdan bu yerga boshqa tumanlaridan balki, qo'shni viloyatlardan va chet ellardan ham mehmonlar tashrif buyuradi. Shu bilan birga tumanda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi, jumladan, Baxmal olmalari o'zining betakror ta'mi va xushbo'yliigi bilan nafaqat O'zbekistonda, balki qo'shni davlatlarda ham juda mashhur. Olmaning "Qizil olma", "Golden", "Krepson", "Semerenka", va "Besh yulduz" kabi eksportbop navlari yetishtiriladi. Ushbu mevalar kuzda pishib yetilgach qish oylarida ham aholini ushbu mahsulot zarar yetkazmay ta'minlash maqsadida tumanda mevalarni saralash va saqlash uchun maxsus zamonaviy muzlatkich omborxonalari mavjud. Tumanning ijtimoiy tuzilmasi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi, mahalliy an'analar va hududning tabiiy sharoitlari bilan bog'liq holda shakllangan.

Tumanda 7 ta shaharcha (O'smat, Mo'g'ol, Novqa, Alamli, Tongotar, Oqtosh, Baxmal), 10 ta mahalla fuqarolar yig'ini (Saroy, Barlos, Bo'g'i-shamol, Tongotar, Gulbuloq, Yangiobod, Zafarobod, No'shiravon, Sangzor, Uzunbuloq) va 106 ta mahalla aholi punktlari mavjud. Aholi joylashuvining o'rtacha zichligi 68 kishi, bu viloyat ko'rsatgichidan ancha yuqori. Tuman ma'muriy markazi - O'smat shaharchasi. Aholisining 92,5 foizi o'zbeklar, shuningdek, qirg'iz, tojik, qozoq, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi.

Tuman nomining kelib chiqishi to'g'risida olimlar tomonidan aniq bir fikr bayon qilinmagan. B.O'rinboyev baxmal so'zini etnonim hisoblab, o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qovchin urug'ining bir tarmog'i baqman, boqmondir, baxmal uning talaffuzda o'zgargan shaklidir deb ta'rif bergan. Tarixchi olim M.Pardayev esa tumanga qachon bu nom berilganligiga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaydi.

Olimning fikricha, bu nom qadimiy emas, chunki tarixiy manbalarda ushbu voqa Yor-yayloq deb tilga olingan. Og'zaki ma'lumotlarga ko'ra, ushbu nom sho'rolar davrida respublika rahbari bo'lgan Sh.R.Rashidov tomonidan berilgan degan fikr ham mavjud. Toponomist olimlar gazlama hisoblangan baxmalga bu so'zning hech qanday aloqasi yo'qligini ta'kidlashgan. Baxmal so'zining etimolo-giyasi mutaxassislar tomonidan sinchiklab o'rganilishi lozim.

Bugungi kunga respublika bo'ylab qishloq infratuzilmalardagi o'zgarishlar



bo'lgani kabi Baxmal tumanida ham yangi tipdagi zamonaviy ko'p qavatli binolar, maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari qurilib foydalanishga topshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida tumandagi transport yo'llarini tamirlash, ichimlik suvi va elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Baxmal tumani qishloqlari iqtisodiy jihatdan asosan agrar yo'nalishga ega bo'lib, tabiiy resurslar va agroiqlimiy sharoit ularning asosiy ustunligi hisoblanadi. Ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohatlar aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq barqaror rivojlanishi ta'minlash uchun infratuzilmani

modernizatsiya qilish, sanoatni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Tuman iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, ayniqsa chorvachilik, bog'dorchilik va dehqonchilik yetakchi tarmoqlar hisoblanadi. Tabiiy yaylovlar va suv resurslarining mavjudligi ushbu yo'nalishlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asta sekin rivojlanib, iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni shakllanmoqda. Ijtimoiy jihatdan Baxmal tumani aholisi asosan qishloq hududlarida yashaydi va an'anaviy turmush tarzi ustunlik qiladi. Aholining bandligi ko'proq agrar soha bilan bog'liq bo'lib bu esa daramodlar barqarorligini ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimov Q.M. Adilova O.A. Usmanov M.R. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax. Ilm Nuri Print. 2024 y
2. Hakimov Q.M. Adilova O.A. Jizzax viloyati geografiyasi. Toshkent. Fan va texnologiyalar. 2015.
3. Fўдалов М.Р. Жиззах вилояти табиати ва уни муҳофаза қилиш. -Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2014. 33-41 б.
4. Комилова Н.К., Усманов М.Р. Жиззах вилоятида туристик дестинацияларни ташкил этишнинг худудий жихатлари. Монография – Жиззах. ЖДПУ “Таҳририй-нашриёт бўлими нашри”, 2023. – 208 бет.